

## XORIJ PSIXOLOGIYASIDA MOTIV VA MOTIVATSIYA MUAMMOSI

*SHahrisabz davlat pedagogika instituti*

*1-22- guruh talabasi*

**G'aybullayeva Zarnigor Farxod qizi**

**Annotatsiya;**Inson xulq-atvori,uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.Ijtimoiy psixologlarning ijtimoiy psixik hodisalarni,hislarni,kayfiyatlarni,faoliyat motivlarini va boshqalarni o'rganishdagi asosiy vazifasi va bu hodisalarning paydo bo'lish va shakllanish qonunlarining, obyektiv omillarning,ijtimoiy-iqtisodiy tabiatini tahlil qilishdan iborat bo'lmog'i kerak.

**Kalit so'zlar;**Motiv, motivatsiya, jahonpsixologiyasi, Bixeviorizm, instinkt, xulq, istaklar, maqsad, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, natijaga erishish, kognitiv, gumanistik, Pavlov,Ehtiyojlar ierarxiyasi

**Аннотация;**Относится к совокупности психологических причин,объясняющих поведение человека,его связи и деятельность.Основной задачей социальных психологов при изучении социально-психологических явлений;чувств,настроений,мотивов деятельности и.т.д должен быть анализ экономической природы этих явлений.

**Ключевые слова;**Мотив, мотивация, мировая психология, бихевиоризм, инстинкт, поведение, желания, цель, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, достижение результата, когнитивный, гуманистический, Павлов, иерархия потребностей

**Abstract;**refers to the totality of psychological reasons that explain human behavior,connections,and activities.The main task of social psychologists in studying socio-psychological phenomena;fellings,moods,motives for activity etc.There must be an

analysis of the patterns of occurrence and formation, objective factors, and the socio-economic nature of these phenomena.

**Keywords;** Motive, motivation, world psychology, behaviorism, instinct, behavior, desires, goal, internal motivation, external motivation, achieving results, cognitive, humanistic, Pavlov, hierarchy of needs.

### **Asosiy qisim**

Psixologiyada motiv-bu inson faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki turtki, ehtiyoj yoki maqsad sifatida qaraladi. Motiv insonning xatti-harakatini boshlashga, davom ettirishga va uni muayyan maqsadga yo'naltirishga yordam beradi. Har bir harakat ortida ma'lum bir motiv yotadi, u inson ichki ehtiyojlaridan yoki tashqi ta'sirlardan kelib chiqadi

Motivatsiya esa-bu insonning faoliyatiga nisbatan bo'lgan ichki va tashqi undovchi kuchlari yig'indisidir. Motivatsiya insonni harakat qilishga undovchi omillar majmui bo'lib, bu jarayonda ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, ishonch va qadryatlar muhim rol o'ynaydi.

Motiv bevosita maqsad bilan yonma-yon turadi;

Motiv har doim ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Motiv va maqsad o'zaro bog'liq bo'lib, motiv insonni harakatga undasa, maqsad ushbu harakatning yakuniy natijasini anglatadi. Ular o'zaro uyg'unlikda inson faoliyatining mazmunini tashkil etadi.

Motivatsiya ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi;

Ichki motivatsiya-insonning o'z qiziqishi, qoniqish hissi yoki o'zini rivojlantirish istagi bilan bog'liq bo'ladi

Tashqi motivatsiya-mukofot, jazodan qochish yoki ijtimoiy bosim kabi tashqi omillar orqali yuzaga keladi.

Motivatsiya nazariyalari vaqt o'tishi bilan ko'plab yondashuvlarni o'z ichiga oladi-biologik,psixoanalitik,kognitiv va insonparvar ya'ni gumanistik yondashuvlar ulardan eng asosiylaridir.

Xorij psixologiyasida motivatsiya muammosi chuqur o'rganilgan va ko'plab nazariyalar orqali tahlil qilingan.Masalan Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi ,Gersbergning ichki omilli nazariyasi,Makkllandning ehtiyojlar nazariyasi,Vrumning kutish nazariyasi va o'z-o'zini boshqarish nazariyasi kabi yondashuvlar motivatsiyani turli jihatlarida ko'rsatadi.Ularning barchasi inson faoliyatining murakkab va ko'p qirrali tabiatini yushunishga xizmat qiladi. Motiv va motivatsiya psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib,inson faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etiladi.Ularning ilmiy asoslari turli psixologik yondashuvlarda har xil talqin qilingan;biologic ehtiyojlardan tortib,ichki psixik jarayonlar,ijtimoiy omillar va ongli tanlovlargacha bo'lgan ko'plab omillar bilan bog'langan.

Motivatsiya psixologik hodisa sifatida bir necha nazariyalar orqali izohlangan.

Bu nazariyalar insonning harakatga qanday turtki olishini,uning ichki va tashqi omillarini tahlil qiladi.Quyida asosiy nazariyalar va ularning tahlili keltiriladi;

-Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi

Bu nazariyaga ko'ra inson ehtiyojlari 5 bosqichda ifodalanadi

1.Fiziologik ehtiyojlar-ovqat,suv,uyqu

2.Xavfsizlik ehtiyoji

3.Ijtimoiy ehtiyojlar-do'stlik,ijtimoiy aloqa

4.Hurmatga bo'lgan ehtiyoj

5.O'zini-o'zi namoyon qilsih

Afzalligi;harakatlar ketma-ketligiga asoslangan

Kamchiligi;har doim qat'iy ierarxiyada bo'lmasligi mumkin;

-Gersbergning ichki omilli nazariyasi

Gersberg motivatsiyani 2 guruhga ajratgan;

Gigienik omillar-maosh,ish sharoiti,siyosat-ular bo'lmasa qoniqmaslik bo'ladi

Motivatsion omillar-erishuvlar,tan olinish,rivojlanish ular mavjud bo'lsa motivatsiya oshadi.

Afzallig;ishdagi motivatsiyani aniqlashda foydali

Kamchiligi;har doim boshqa sohalarga tadbqiq etib bo'lmaydi

-Makllendning o'zaro raqobat nazariyasi D.Makkllend motivatsiyani 3 asosiy ehtiyoj bilan bog'laydi

1.Yutuqqa erishish

2.Hokimiyatga ega bo'lish

3.Aloqa va ijtimoiy munosabatlar

Turli motivatsiya nazariyalar inson xatti-harakatini turli tomonlardan yoritadi.Ba'zilar ehtiyojlarga asoslanadi,ba'zilar esa mukofot va jazoga.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1."Muloqot“, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (M-harfi). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.

2. P.I. IVANOV, M.E. ZUFAROVA „ Umumiy psixologiya" O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI Toshkent - 2008 357-bet

3.<https://inacademy.uz/index.php/yo/article/download/47627/30366/52048>

4. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Barkamol fayz media”, 2018. - 272 b.

5. E. G‘oziyev „ Umumiy psixologiya " Toshkent - "Universitet" - 2002 2-bet